

QADIMGI DAVR CHOLG'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI

Muyassarxon Achildiyeva

Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Musika ta'limi" kafedrasini o'qituvchisi

Ikromova Farangis Yigitali qizi

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musika ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy kuy-qo'shiq ijrochiligimiz tarixi, kelib chiqishi va shu bilan bir qatorda cholg'u sozlarimiz haqida batafsil yoritilgan. Cholg'u sozlarimizning san'at olamidagi o'рни va ahamiyati, ularning inson estetikasiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kuy, qo'shiq, ijro, cholg'u, usta-shogird, san'at, madaniyat, an'ana, qadriyat.*

San'atda mazmun va shakl tarixiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. Tarixan shunday voqea ro'y berganki, O'rta Osiyo hududida og'zaki an'anadagi xalq kuylari hamda professional kuylar ijro etiladigan rang-barang cholg'u asboblari yoyilgan. Milliy cholg'u asboblaridagi ushbu ijrochilik san'ati asrlar davomida rivojlanib, bir ijrochidan boshqasiga og'zaki o'tib, bizgacha yetib kelgan. Milliy cholg'u asboblarida ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan barobar cholg'u asboblarini yasash san'ati ham rivojlanib, ustozdan shogirdga o'tib kelgan. Milliy cholg'u asboblarining klassik (mumtoz) shakllari qaror topishiga aynan ijrochilik san'ati ta'sir ko'rsatgan. Yirik olim va skripka ustasi Y. Vitachekning o'tmish skripka ustalarining faoliyati to'g'risidagi so'zlariga ko'ra, "XVII—XVIII asrlar ustalarining ilmiy bilimlari saviyasi to'g'risida ular da hech qanday ilmiy nazariya bo'lmagan va ular aql kuchi bilan o'tkazilgan tajribalar yo'li bilangina qanday qilibligini bilamiz, biroq nega aynan shundayligini bilmaymiz, deya oladigan holatga erishganliklari to'g'risida xulosa chiqara olamiz".¹ Yozma manbalar hamda arxeologik ma'lumotlar dalolat berishicha, O'rta Osiyoda bundan ikki ming yildan ziyod vaqt hozir ishlatilayotgan cholg'u asboblarining bevosita ajdodlari bo'lgan birmuncha mukammal hamda rang-barang sozlar tarqalgan. Cholg'uda ijro etiladigan kuyda yuksak ijodiy yutuqlar, shuningdek butun musika san'ati uslubining muayyan tarixiy vaqt oralig'idagi muhim xususiyatlari gavdalangan. Cholg'u kuyi xalq musiqiy mohiyatining shaklan mukammal va mazmunan serqirra ifodasidir. O'rta Osiyo xalqlarning turmushi va urf-odatlarini, kuy va raqs jo'rligida ijro etiladigan turli xalq marosimlarini tavsiflovchi Sharq yilnomalarida cholg'u asboblarining xilma-xilligi haqida gap boradi. Musiqiy tilga, uning ohang-parda xususiyatiga aynan

¹ E. Витачек. Очерки по истории изготовления смычковых инструментов. М. — Л., 1952. С. 286-287

qadimda asos solingan, cholg'u asboblarning asosiy tarkibi hamda soz turlari belgilangan, ko'hna xususiyatlarini hozirga qadar saqlab kelgan va bizgacha yetib kelgan xalq monodiya (yakkanavoz) va xalq professional musiqasi rivojlanishi uchun negiz yaratilgan. Milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati bo'lib, ijrochilik san'ati bilan chambarchas bog'langan. Ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan cholg'u asboblari ham takomillashib, ularning ko'rinishi o'zgarib boradi. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asboblarning rivojlanish jarayonining ushbu chambarchas o'zaro munosabati ularni jamiyat musiqiy ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini olg'a suradi. Ijrochi o'z san'ati bilan ijodkor (bastakor)da yangi ijodiy niyatlarni yuzaga keltiradi, ayni mahalda "cholg'u asboblari konstruksiyasini takomillashtirishga, ularni o'zlashtirish san'atiga hamda ularning ifoda imkoniyatlarini boyitishga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatadi"². Cholg'u asboblarning uzoq yashashi ular jonli musiqa, ya'ni ijrochilik bilan g'oyat chambarchas bog'liqligi bilan izohlanadi

XVII asrning buyuk italyan skripka ustalari Andrea va Nikola Amati, Antonio Stradivari, Juzeppe Gvamerining shuhrati ular tomonidan yaratilgan cholg'u asboblari tufayli bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular hozirgi kunga qadar ijrochilik orqali saqlanib qolgan va beqiyos hisoblanadi. Sharq xalq ustalari yaratgan an'anaviy cholg'u asboblari aynan ijrochilik orqali saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan. Xalq ustalari yaratgan nodir cholg'u asboblari ijrochilik madaniyati tufayli saqlanib keldi va ularni takomillashtirish davom etmoqda. Hozir bu an'analar ajdodlardan avlodlarga o'tkazilmoqda. XIX asr oxiri — XX asr boshida yashab, ijod qilgan o'zbek xalq cholg'u asboblari ustalari; qo'qonlik Mo'minbek va Haydarbek; toshkentlik Umarali, Toshboy Sultonov, Hoji Oxun, Usmon Zufarov; samarqandlik Bo'ri; xorazmlik mashhur sozanda Matyusuf Xarratov, toshkentlik hofiz Shorahim Shoumarov va boshqalarning asariari m a'lum. Ular yasagan cholg'u asboblardan ijrochilar hozir ham eng yaxshi namuna sifatida foydalanishmoqda. Bu asboblari hozirgi ustalar uchun ham an'anaviy cholg'u asboblarni tayyorlashda etalon bo'lib xizmat qilmoqda. Ko'hna san'at obidalari, yozma manbalar, shuningdek arxeologik ma'lumotlar ikki ming yildan ziyodroq avval ham O'rta Osiyo hududida hozir foydalanilayotgan sozlarning bevosita ajdodi bo'lganligidan, yetarlicha mukammal rang-barang cholg'u asboblari keng yoyilganidan dalolat bermoqda. Chunonchi, buyuk qomusiy olim, O'rta Osiyo va chet el Sharqining ayrim mamlakatlarida musiqa fani asoschisi bo'lgan Abu Nasr Forobiy (870—950), masalan, nay, tanbur va boshqa ko'plab sozlar chalgan. Bunday cholg'u asboblari Forobiy risolalarida ham, o'rta asrlarning boshqa olimlari — Abu Ali ibn Sino (X asr), Abu Abdulloh Xorazmiy (X asr), Ahmadiy (XIV asr) asarlarida ham tavsiflangan. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ham ud, tanbur, chang, rubob, qo'buz, g'ijjak, qonun, rud, nay, surnay, karnay, lafar yoki doira, nog'ora va o'sha

² Г. Берлиоз. Большой трактат о современной инструментовке и оркестровке. Издво «Музыка», М., 1972. С. 8.

davrda taomilda bo'lgan boshqa cholg'u asboblari tilga olingan. O'rta asrlarda yashagan O'rta Osiyolik olimlar, ayniqsa, Abdurahmon Jomiy (XV asr) va Darvish Alining (XVI-XVII asrlar) musiqaga oid risolalaridagi tavsiflarga ko'ra, bu sozlar bizgacha deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan. Abu Nasr Farobiy ta'rifiga ko'ra, musiqa nazariyasi besh asosiy qismdan iborat: "Birinchisida musiqa san'atining umumiy asoslari hamda qoidalari o'rganiladi; ikkinchisida — kuyning tovush balandligini tashkil qilishning ayrim unsurlari va ularning aloqalari; uchinchisida — nazariyaning amaliyotga aylanishida vosita bo'ladigan cholg'u asboblari o'rganiladi, to'rtinchisida — ritm asoslari ko'rib chiqiladi; beshinchisi — kuyni tuzish masalalariga bag'ishlanadi"³. Farobiy ta'limotida nazariyaning musiqa amaliyoti bilan aloqasi muhim rol o'ynaydi. Farobiy tasavvurida obyektiv musiqiy amaliyotning o'ziga xos ifodasi bo'lgan cholg'u asboblarini o'rganish... Ohanglarning sozdagi joylashuvi raqamli va applikator prinsipi asosida belgilangan. O'zbek xalqi cholg'u asboblarining dastlabki tadqiqotchilaridan biri harbiy duxovoy orkestr kapelmeysteri A.F.Eyxgorn bo'lgandi. U tuzgan jadvalda 36 cholg'u asbobi tavsifi mavjud. O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi. Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan avvalgi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan. Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham miloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida yetib kelgan. Zarbli cholg'ular - doira, debu, daff, daz, dov, sanj, g'o'lachalar miloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan

³ Musiqa tarixi O'rta Osiyo va Qozog'iston 1996.

takomillashib bizgacha yetib kelgan. Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olimi T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi. Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan eramizdan besh ming yil avval suyakdan ishlangan va beshta barmoq bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi. O'rta Osiy hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doiraga asosan ayollar jo'r bo'lgan. Ularning doyra usullariga mos qo'shiq aytishi va raqsga tushishi o'sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Keyingi davrlarda, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida musiqa cholg'ulari turli bayram va madaniy marosimlarda faol ishtirok etib, musiqa amaliyotini boyitgan holda o'zining yangi qirralarini ocha boshladi. Shuningdek, cholg'ular musiqiy talaffuz va musiqa tovushqatorlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Butun musiqa tarixi davomida, ayniqsa eng avvalgi rivojlanish bosqichlarida, hali umuman nota yozuvi va boshqa musiqiy-tarixiy manbalar bo'lmagan davrlarda musiqiy cholg'ular bebaho tarixiy manba hisoblangan. Ular musiqa rivojida ashyoviy manba bo'lib hisoblangan, ya'ni cholg'ular musiqa rivojida poydevor vazifasini bajarsa, musiqa esa undan keyingi pog'onani egallagan. Aniqrog'i, cholg'ular o'sha davrdagi musiqa taraqqiyotining nechog'lik rivojlanganligini tasdiqlovchi vosita hisoblangan va har bir davrdagi taraqqiyot jarayonini namoyon etgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, inson ovozi va tanasini chertish orqali hosil qilingan tovushlar - tabiiy tovushlar hisoblanadi. Haqiqatdan ham shunday. Ibtidoiy odamlar vaqt o'tishi bilan "tabiiy damli cholg'u" hisoblangan inson ovozi va "tabiiy zarbli cholg'u" hisoblangan o'z tanasi bilan qanoatlanmay, sun'iy tovush yaratish vositalarini topishga harakat qilganlar. Lekin shunga qaramay, manbalarda yozilishicha birinchi ish jarayonlarini tashkil etishda ibtidoiy odamlar hech qanday sun'iy tovush chiqaradigan ashyolarsiz, o'sha davrlarda yagona material va san'at obyekti hisoblangan - o'z tanalaridan chiqaradigan sehrli ovozlardan foydalanganlar va shu bilan chegaralanganlar. Ular atayin sun'iy tovushlar yaratish maqsadida o'z tabiiy tovushlarini o'zgartirib, ba'zi-bir cholg'ular ovozini yaratganlar (mirliton). U va bu hollarda ham musiqa cholg'usi timsolida inson a'zolari bo'lgan. Inson ovozi damli cholg'ularning yaratilishiga olib kelgan bo'lsa, chapak chalish, raqs paytida yer tepkilash, tanani chertish va boshqalar zarbli cholg'ularni, aniqrog'i shovqinli cholg'ularning ilk ko'rinishlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik esa qarsak chalishdan asta-sekin

bronza va mis tarelkalardan foydalanishga o'tildi. Shovqinli shiqildoqlar esa ispan kastanyetalariga aylandi. Shu oddiy cholg'ular bilan birga ancha vaqtgacha tana ham zarbli cholg'u sifatida qo'llanilgan (yelka, qorin, peshona hamda tananing har xil qismlari orqali ovoz chiqarish). Tanaga taqiladigan har xil shiqildoq va taqinchoqlar ham tez rivojlangan. Ular inson harakatlanganida, yurganida, ayniqsa 13 raqs tushganida jaranglagan. Ichi o'yilgan qovoqlardan ham bolalar o'yinchog'i paydo bo'lgunga qadar foydalanilgan. Ovoz qovoqning ichiga chertish orqali taralgan. Loy tuvaklarning paydo bo'lishi hamda qovoqlar ichini o'yib tayyorlash ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Rezonans, ya'ni sado berish masalasini tushunib yetgandan keyin avval yog'ochli va loy barabanlardan, keyinchalik hayvon terilari tortilgan barabanlardan foydalana boshlashgan. Shu tariqa yangi turdagi hozirgi baraban va litavraga o'xshash cholg'ular paydo bo'la boshlaydi. Keyingi qadam - bu damli (aerofon) cholg'ularda teshiklar o'yib, ovoz balandligini nazorat qilish bo'lgan. Qadimgi odam inson ovozidan kuchliroq tovush beradigan, ochiq havoda ijro etiladigan cholg'ularni ixtiro qilgan va uni ovda, harbiy yurishlarda, to'y, sayil, bayram va boshqa turli yig'inlarda qo'llash odat tusiga kirgan. Shovqinli cholg'ulardek juda qadimiy bo'lmasa-da, 16 chig'anoqdan yasalgan har xil hushtakchalar hamda naysimon cholg'ular eng oddiy cholg'ulardan hisoblangan. Shunday qilib kishilik hayotida har bir cholg'u sozi va kuy qo'shiqning kelib chiqishi hamda o'z tarixi mavjud. Shu bilan birga cholg'u sozlari qadim davrlardan buyon sayqallanib yanada takomillashib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. T.Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi.
2. Sh.Rahimova. A.Lutfullayev. Cholg'ushunoslik. Toshkent. 2010.
3. Oydin Abdullayeva. Cholg'ushunoslik (simfonik orkestr). Toshkent 2018
4. Z.M.Yakubov. Cholg'u ijrochiligi. Samarqand. 2021.
5. A.Tashmatova. Ijrochilik san'ati tarixi.
6. A.Liviyev. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. Toshkent. 2005.
7. www.ziyonet.uz
8. www.edu.uz
9. D.Abduhakimova. "Jaloliddin" – yangi raqs spektakli. Madaniyat gazetasi N1. (230). 12.01.2023-soni 2-bet.
10. Achildiyeva M. Ikromova F. The ballet "Tomaris" in the culture of Uzbek ballet place and significance Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
11. Achildiyeva M. Ikromova F. "O'zbek musiqa san'atida maqomning o'rni" Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference . London 2020 90-93 bet

12. Achildiyeva M. Xojimamatov A. Yuldasheva D. Ikromova F. "Uyghur Folk Singing Genre" Turkish Online Journal of Qualitative (TOJQI) Inquiry (Turkiya 2021) 3509-3517 bet (SCOPUS)

13. Ачилдиева Муяссархон Адилжоновна, Носирова Муслимахон Ойбек қизи, КОРРУПЦИЯ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР. «ОЛИЙ ТАʼЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ YONDASHUVLARI» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TOʻPLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 381-388 bet.

14. Achildiyeva Muyassarxon Adiljonovna, Ikromova Farangis, КОРРУПСИЯ- МИЛЛИЙ ТАРРАҚИЙОТ ВА ЈАМИЈАТ RIVOJI KUSHANDASIDIR. «ОЛИЙ ТАʼЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ YONDASHUVLARI» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TOʻPLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 389-395 bet.

15. Хожимаматов Азимжон Файзулло ўғли, Назархўжаева Рухшонабону Умид қизи, КОРРУПЦИЯ – АСР ВАБОСИ. «ОЛИЙ ТАʼЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ YONDASHUVLARI» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TOʻPLAMI (2022 yil 6 dekabr) ISSN 2181-1571 (I-qism) 396-401 bet.

16. M.Achildiyeva 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100

17. Achildiyeva M, Xojimamatov A, Ikromova F (2022) Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH 11(01) 55-58

18. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463

19. Xojimamatov A. Nazarxodjayeva R. Korrupsiya – asr vabosi

20. Ikromova F. OʻZBEKISTON XALQ HOFIZI OCHILXON OTAXONOVNING HAYOT YOʻLI CHIZGILARI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE Vol. 1 No. 3 (2022): 151-156

21. Achildiyeva M, Ikromova F REYNGOLD GLIER VA TOLIBJON SODIQOVNING «LAYLI VA MAJNUN» OPERASIDA MAQOM YOʻLLARINING QOʻLLANILISHI UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 23-28 bet

22. Xojimamatov A, Ikromova F. MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (OʻZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA) UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet

23. Ikromova F. SHASHMAQOMDA TURKUM ASAR TARONALARI UIF 2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 29-33 bet.

24. Hojimatov Azimjon CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciyencyes VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Sciyentific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (265-275 bet).

25. Muyassarxon Achildiyeva SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUYe 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 (344-352 bet).

26. Xojimatov Azimjon, Muhammadjonova Mohinur. VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO'LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 587-591 bet.

27. Ачилдиева Муяссархон, Аткиёева Рухшона. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САНЪАТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023 578-583 bet.

28. M.Achildieva, N.Butabayeva, M Nasirova A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6 bet